O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING NAVOIY
VILOYATI BOSHQARMASI

210100 Navoiy sh. Zarapetyana-10, Tel/Faks: 71-203-11-05, E-mail: navoi.ex@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Sultonov Zafar Zokirovich

2026 - yil 30 - iyuldagi 291246 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Navbahor tuman Beshrabot MFY hududida 5 qavat turar joy binosi
Buyurtmachi: N U R A F S H O N ZAMIN MCHJ
Bosh loyihachi: "UY-JOY-LOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: Tanlov savdolari asosida aniqlanadi
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 136662

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. “Elektron-onlayn auksionlarni tashkil etish” AJ Elektron-onlayn auksion natijalari to’g’risidagi YU-167-574497-sonli Bayonnoma. Elektron onlayn-auksion o’tkazilgan sana 2022-yil 14-oktyabr sanasi.

1.2. Arxitektura-rejalashtirish topshirig’i 2024-yil 16-may sanasidagi 1712-1712230-188194-sonli, Navoiy viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo’jaligi boshqarmasi arxitektura-rejalashtirish bo’limi tomonidan berilgan, (my.gov.uz).

1.3. Navoiy viloyat Navbahor tumani Beshrabot MFY hududida 5 qavat turar joy binosi qurulishi ob’ekti bo’yicha muxandislik geologiya xulosasi “O’ZGASHLITI” Navoiy filiali tomonidan 2025-yilda tasdiqlangan.

1.4. Navoiy viloyat Navbahor tumani Beshrabot MFY hududida 5 qavat turar joy binosi qurulishi ob’ekti loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun berilgan loyihalash topshirig’i, buyurtmachi “NURAFSHON ZAMIN" MCHJ direktori J.Axmedov tomonidan 2026-yilda tasdiqlangan.

1.5. Ob’ektni muxandislik tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar: “Navoiy suv ta’minot” AJ tomonidan 2026-yil 30-iyundagi 02.02//555-sonli texnik shart; “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Navoiy hududiy filiali tomonidan 2026-yil 3-fevraldagi
12230163320-son texnik shart;

1.6. Buyurtmachining loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun dastlabki ma'lumotlari “Nurafshon Zamin” MCHJ rahbari J.Axmedov tomonidan 2026-yilda tasdiqlangan xati.

1.7. Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan narxlarni kelishuv bayonnomasi 2026-yilda “Nurafshon Zamin” MCHJ rahbari J.Axmedov tomonidan tasdiqlangan.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Buyurtmachining “Shaffof qurilish” MAT orqali yuborgan 136662-sonli elektron murojjati.

2.2. Ishlab chiqish bosqichida loyiha hujjatlari - quyidagilardan iborat ishchi loyiha:

- Umumiy tushuntirish xati (PZ), Qurilishni tashkil qilish loyihasi (POS); Teplotexnik hisob kitob; Energetik pasport;

- grafika qismi, "GP" qismi; turar-joy bino AR, KJ, OV, VK, EO, FES; ES, NBSH qismlari loyihalari;

- smeta qismi (boshlang'ich qiymatini hisoblash, VPR, LRV).

Ob'ektning qiymati QQS bilan joriy narxlarda – 10 166 969,812 ming so’m.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Hudud va qurilish maydonchasining xususiyatlari.

Mazkur qurilishi rejalashtirilgan ob’ekt qurilish maydoni Navoiy viloyati Navbahor tumani "Beshrabot" MFY hududida joylashgan. Elektron-onlayn auksion natijalari to’g’risidagi YU-167-574497-sonli Bayonnoma bo’yicha turar-joy binosini qurish uchun tanlangan yer uchastkasi maydonida 0,2759Ga ni tashkil qiladi.

Qurilish maydoni IV A qurilish-iqlimiy zonalarining joylashuvi, IB iqlim zonalariga kiradi.

Qurilish hududining iqlimi keskin kontinental bo'lib, yozi uzoq issiq, quruq va qishi qisqa, ammo sovuq.

“O’ZGASHLITI” Navoiy filiali tomonidan 2026 yilda tayorlangan muxandislik geologiya xulosasi natijasiga asosan o’rganilgan qurilish maydonida ikkita muxandislik-geologiya element (IGE) aniqlangan.

Birinchi muxandislik-geologiya elementi (IGE-1) – suglinok to’q-jigarrang gruntlar.

Elementning ochilish qatlam qalinligi – 2,0-2,2 metr gacha.

Ikkinchi muxandislik-geologiya elementi (IGE-2) kulrang gruntlar.

Elementning ochilish qatlam qalinligi – 1,4-8,3 metr gacha.

Muhandislik-geologik jihatdan, 2,0 m gacha bo‘lgan razvedka chuqurligida kam sementlangan uchastka qumoq (sug‘linok) va qumtosh jinslaridan tashkil topgan bo‘lib, ustki qismi tuproq-o‘simlik qatlami bilan qoplangan.

Tadqiq etilayotgan uchastkadagi gruntlar sho‘rlanmagan.

Gruntlardan olingan suvli eritmalardagi quruq qoldiq miqdori 4150 mg/kg gacha, harakatchan sulfatlar (SO_4) esa 2390 mg/kg gacha o‘zgaradi. Yer osti suvlari o’rganish paytida (2025-yil avgust oyi) yer yuzasidan 2,0-2,2 m chuqurlikda ochilgan.

Seysmik xususiyatlar bo'yicha tuproq toifasi - III (uchinnchi)

Tashqi havoning sovuq harorati minus -13C.

Qor yuki - 0,50 kPa.

Shamol bosimi - 0,38 kPa.

Tuproqning mavsumiy muzlashining me'yoriy chuqurligi 0,57 m (Navoiy viloyati bo’yicha har 50 yilda bir marta).

Qurilish maydonining seysmikligi - 7 ball (Navbahor tumani bo’yicha zilzila takroriyligi 100 yilda bir marta) (QMQ 2.01.03-19 ning 1-ilova jadvali).

Bosh reja.

Mazkur ob’ekt qurilishi Navoiy viloyati Navbahor tumani "Beshrabot" MFY hududida joylashgan. Loyihada 1-ta 5-qavatli ikki kirish yo’lakli 90-xonadon 1 va 2-xonali turar-joy

binosi joylashtirilgan.
Arxitektura – rejalashtirish va konstruksiya qism yechimi.
Ko’p xonadonli turar-joy binosi ikki kirish yo’lakli (2-podezd) 5-qavatli yerto’la qavati bilan loyihalangan. Turar-joy binosi rejada kompaktli, to’g’ri burchakli 58,18x18,7 metr o’lchamli rejalashtirilgan. Qavatlarda xonalar balandligi poldan shiftgacha 3,0 m, yerto’la qavat balandligi 2,2 m ni tashkil etadi.
Turar-joy binosining yerto’la qavatida texnik maqsaddagi xonalar joylashtirilgan. Birinchi qavatdan beshinchi qavatgacha turar-joy xonadonlari joylashtirilgan. Podezdda zinalar joylashtirilgan.
Ichki pardozlash: devorlar – shtukaturka qilish; Zina poya moyli bo’yoq bilan bo’yash, Pol qoplamasi – beton pol;
Tashqi pardozlash: Sokol – Mramor plitka; devor – penopolisterol ustidan “Travertin”; dereza – PVX profilli derezalar steklopaket oynalar bilan qoplash; eshiklar – kirish eshiklari termo izolyatsiyalangan metall eshiklardan.
Texnik iqtisodiy ko’rsatkichlar:
Umumiy maydoni – 1117,32 m;
Qurilish maydoni – 693.0 m.
Qurilish hajmi – 19553,1 m;
Konstruktiv qismi.
Fundament podoshvasi — monolit temirbetondan qilingan yaxlit plita, qalinligi 400 mm; Poydevor qalinligi 400mm lentasimon hamda FBS bloklardan tashkil topgan.
Podval devorlari — V15 sinfli betondan, qalinligi 400 mm;
Kolonnalar — V20 sinfli monolit temirbeton, kesimi 380x380 mm;
Devorlarni kuchaytirish uchun serdechniklar — V15 sinfli monolit temirbeton, kesimi 130x380 mm va 130x250 mm;
Rama rigellari — V20 sinfli monolit temirbeton, kesimi 250x380 mm;
Qavatlar va tom yopmasi — qalinligi 220 mm bo‘lgan yig‘ma temirbeton kovakli plitalar. Qavat va tom perimetri bo‘ylab V15 sinfli betondan 220 mm qalinlikda antiseismik belbog‘ bajarilgan;
Devorlar (karkasni to‘ldirish) — qalinligi 380 mm bo‘lgan g‘isht devorlar, M75 markali g‘isht sement-qumli M50 eritmada plastifikatorlar bilan. Devorlar II kategoriya bo‘yicha (180 kPa > R > 120 kPa), SG-1 va SG-2 setkalar bilan armaturalangan, kesimi kamida 1,5 sm^2, balandlik bo‘yicha qadami 675 mm;
Issiqlik izolyatsiyasi — GOST 9573-2012 bo‘yicha PPJ-120 markali mineral paxta plitalar, qalinligi 50 mm. Plitalar yuzasiga 3–4 mm qalinlikda asosiy armirovka qatlami surtaladi. Unga GOST R 55225-2012 bo‘yicha FSR-160(110)2000/2000 markali ishqorga chidamli fasad setkasi joylashtiriladi. Keyin 8–10 mm qalinlikda bezak shtukaturka qatlami surtaladi, dyubel boshchalari yashirin bo‘lishi shart. Fasad bezagi arxitektura qismi chizmalariga muvofiq bajariladi;
Zina marshlari va maydonchalari — monolit temirbeton;
Tom konstruksiyasi — har ikki tomoni polimer qoplamali proflist, yog‘och konstruksiyalar bo‘ylab;
Kirish qismi va texpodpolga tushish — V15 sinfli betondan monolit temirbeton qilib loyihalangan;

Barcha metall konstruksiyalar GF-020 gruntovka (GOST 18186-79*) ustiga PF-115 emal (GOST 6465-76*) bilan 2 qatlamda bo‘yaladi;

Muhandislik kommunikatsiyalari uchun teshiklar tegishli bo‘limlar talabiga ko‘ra ko‘zda tutilgan;

Bino atrofida 1,0 m kenglikda, shag‘al asosida 3% suv oqizuvchi nishabga ega beton otmostka ko‘zda tutilgan.

Energiya samaradorlik:

Binoning energiya samaradorlikni ta’minlash uchun energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan, shulardan asosiylari:

- tashqi devorlarda oyna paketli plastik deraza romlari va eshik romlari o‘rnatilishi;
- zichligi ɤ=120-140kg/m3, qalinligi 50mm bo‘lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi qabul qilingan);
- zichligi ɤ=100kg/m3, qalinligi 150mm bo‘lgan mineral plitalardan tom yopma termoizolyatsiyasi bajarilgan;
- elektr yoritish tizimida energiya tejamkor elektr chiroqlari ko‘zda tutilgan.
- foydali ish koifisenti yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan.

Nogironligi bo’lgan shaxslar uchun texnologik jihozlash qismi (NBSH).

Nogironligi bo‘lgan shaxslar va kam harakat aholi guruhlarining binodan to‘siqsiz foydalanishini ta’minlash maqsadida loyihada SHNK 2.07.02-24 “Qurilish ob’ektlarini nogironligi bo’lgan hamda keksalar ehtiyojini inobatga olgan holda loyihalashtirish” talablariga asosan jihozlangan avtoturargoh, harakat yo‘nalishlarida 300x300x30,300x500x30 o’lchamdagi sariq rangli taktil qoplamalar, 150x150 o’lchamdagi sariq rangli taktil piktogrammalar hamda sirpanishga qarshi pol qoplamalari nazarda tutilgan.Turar joy binosiga kirish eshiklari va lift eshiklarida perimetri bo’yicha sariq rangli contrast lentalar ko’zda tutilgan. Turar joy binosiga kirish eshiklari va lift eshiklariga ko’zida nuqsoni bo’lgan shaxslar uchun sariq rangdagi (diametri 200mm) aylanalar o'rnatilish nazarda tutilgan.Zinalar tutqichlari boshlanish va tugash qismida qavat raqami ma’lumotlari keltirilgan Brayl alifbosida yozuvlar ko’zda tutilgan. Turar joy binosiga kirish qismida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mo’ljallangan ko’tarish moslamasi nazarda tutilgan.Nogironligi bo’lgan shaxslar uchun mo’ljallangan chaqiruv tugmasi, yong’in vaqtida harakatlanish yo’nalishini ko’rsatuvchi maxsus belgilar ko’zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Elektr ta’minoti.

Obyektning elektr ta’minoti keyingi bosqichda amalga oshiriladi. Loyihachi tashkilotning javobiga ko‘ra, «Navbahor» podstansiyasini rekonstruksiya qilish ishlari olib borilayotgani sababli ulanishning aniq nuqtasi hozircha belgilanmagan.

Elektr ta’minoti ishonchliligi bo‘yicha loyihalashtirilayotgan turar joy binosining elektr qabul qilgichlari asosan III-toifa, avariya (evakuatsiya) yoritishi hamda lift II-toifa elektr ta’minoti ishonchliligiga mansub.

Loyihada ishchi (umumiy va mahalliy) hamda avariya (evakuatsiya) yoritish tizimlari ko‘zda tutilgan.

Umumiy ishchi yoritish statsionar LED-panel turidagi svetodiodli yoritgichlar yordamida amalga oshiriladi. Xonalarning yoritilganlik darajasi QMQ 2.01.05-24 talablariga muvofiq

qabul qilingan. Ishchi yoritishni boshqarish xonalarga kirish joyida o‘rnatilgan o‘chirgichlar orqali amalga oshiriladi.
Guruh yoritish tarmoqlari PUNP-2×1,5 markali sim bilan PVX gofralangan quvurda yashirin usulda yotqiziladi.
Har bir qavat maydonchasida qavat elektr shiti (ShE) o‘rnatilib, undan kvartira elektr shitlariga (ShS) VVGng 3×10 kabeli tortiladi.
Kuch taqsimlash tarmoqlari hamda rozetka tarmoqlari VVGng(A)-LS kabeli va PUNP simi bilan bajarilib, PVX gofralangan quvurda yashirin usulda yotqiziladi.
Har bir xonadonning elektr qozonini ulash uchun kvartira elektr shitida 30 mA sezgirlikdagi UZO bilan jihozlangan avtomatik o‘chirgich o‘rnatilishi nazarda tutilgan.
Loyihalashtirilayotgan binoning VRU (kirish-taqsimlash qurilmasi) yerto‘lada o‘rnatiladi. VRUdan qavat elektr shitlarigacha besh tomirli PV simi yotqiziladi.
Barcha elektr qabul qilgichlarning metall korpuslari bir fazali tarmoqlarda uchinchi himoya (PE) o‘tkazgich, uch fazali tarmoqlarda esa beshinchi himoya (PE) o‘tkazgich orqali yerga ulanadi.
Loyihada TN-S yerga ulash tizimi qabul qilingan. Binoga elektr ta’minoti besh tomirli kabel orqali kiritilishi lozim. Beshinchi tomir elektr ta’minoti manbaining yerga ulangan neytraliga ulanadi. Elektr jihozlarining barcha metall korpuslari, elektr shkaflari va shchitlarining korpuslari majburiy ravishda yerga ulanishi lozim.
0,4 kV kabel liniyasini montaj qilish va yotqizish, elektr jihozlarini o‘rnatish hamda sozlash ishlari elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilish bo‘yicha amaldagi PTE, PTB va PUE talablariga muvofiq barcha zarur tashkiliy hamda texnik tadbirlar bajarilgandan so‘ng amalga oshirilishi lozim.
Uy tom qismida On-Grid tizimiga ega, umumiy ishlab chiqarish quvvati 10 kVt bo‘lgan fotoelektr stansiyasi (FES) o‘rnatilishi nazarda tutilgan. FES tizimi impulsli o‘ta kuchlanishlardan hamda doimiy tokning me’yordan ortiq oshishidan himoyalanadi.
Chaqmoq zarbasidan himoyalash maqsadida FES uchun alohida yerga ulash konturiga ulangan chaqmoqdan himoya tizimi ko‘zda tutilgan.
Loyihada kirish yo‘laklari (podyezdlar) kirish qismlarida videokuzatuv kameralari o‘rnatilgan videokuzatuv tizimi ham nazarda tutilgan.
Ichki sovuq suv ta’minoti:
Xo‘jalik-ichimlik sovuq suvi mavjud tarmoqlardan ta’minlangan. Sovuq suvning magistral tarmoqlari bitta manbadan ta’minlanadigan tutash sxemada loyihalangan. Quvurlar polipropilen quvurlardan PPR PN-10 D20mm-D75mm GOST 52134–2003 bo‘yicha bajarilgan.
Ichki issiq suv ta’minoti:
Issiq suv manbai sifatida elektr qizdirgich ishlatilgan. Quvurlar polipropilen D20mm-D32mm GOST 52134–2003 bo‘yicha bajarilgan. Issiq suv umumiy sarfining 25 miqdoriga hissoblanib issiq suv quyosh panellari o‘rnatilgan.
Ichki oqova-suv:
Maishiy va oqova suvlar sanitariya asboblaridan kanalizatsiya tizimi orqali chiqarilgan. Ichki kanalizatsiya D100mm-D50 mm plastik quvurlardan, GOST 22689–89 bo‘yicha, bajarilgan. Gorizontal uchastkalar i=0,02 va i=0.03 qiyalikda chiqish tomon yotqizilgan. Ventilyatsiya stoyaklari tomdan 0,5 m balandlikda chiqarilgan. To‘sqinliklarni bartaraf

etish uchun tozalash va reviziya joylari nazarda tutilgan.

Tashqi sovuq suv:

Tarmoq polietelen quvurlardan D75mm-D110mm GOST 18599–2001 bo‘yicha bajarilgan. Xo‘jalik-ichimlik suvi manbai mavjud tarmoq hisoblanadi. Tarmoqda suv qudug‘ini o‘rnatish, to‘siq armaturasi va biriktiruvchi qismlar ko‘zda tutilgan.

Tashqi oqova-suv:

Maishiy oqova suvlari sanitariya asboblaridan tabiiy oqim orqali avtonom tozalash qurilmasi Toplos ga tashlash loyixasi ko`zda tutilgan. Quvurlar polietilendan diametri D160mm GOST P 32413–2013 bo‘yicha bajariladi. Tizim SHNK 2.04.03–19 asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, yig‘ma temir-beton kanalizatsiya quduqlari seriyasi 3.900.1–14 sonli nashrga muvofiq o‘rnatilgan.

Isitish:

Issiqlik manbai- elektr qozonlar. Binoda pastdan tarmoqlangan ikki quvurlik isitish tizimi ko‘zda tutilgan. Issiqlik tashuvchi — issiq suv, harorati t_n=95°C, t_o=75°C. Isitish tizimi D25mm polipropilen quvurlardan bajarilgan. Isitish asboblari sifatida radiatorlar bilan loyihalangan.

Ventilyatsiya:

Binoda ta‘biy va mexanik shamollatish tizimi ko‘zda tutilgan. Mexanik shamollatishda havo tomga chiqaruvchi havo kanali orqali chiqariladi. Kanallardan havoni kanalli ventilyatorlar haydab beradi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Ushbu loyiha bo‘yicha quyidagi maxsus xulosa mavjud.

- Navoiy viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2026-yil 30-apreldagi 283192390-sonli xulosasi;
- Davlat ekologik ekspertizasi markazi Navoiy viloyati filiali Davlat ekologik ekspertizasining 2025-yil 25-martdagi 01-02/06-1597-sonli ijobiy xulosasi.

5.2. Ushbu loyiha bo‘yicha quyidagi tashkilotlar bilan kelishuv bo‘lishi kerak:

- Favqulodda vaziyatlar Navoiy viloyat boshqarmasi yong‘in xavfsizligi bilan;
- Navbahor tuman sanitariya epidemiologiya va osoyishtalik markazi bilan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **10 166 969 812** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **1 047 202 025** so'mga oshirilib,

11 214 171 837 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **9 351 713 095** so'm

Asbob-uskunalar: **660 940 331** so'm

QQS: **1 201 518 411** so'm

6.1.Smeta qismi.

Qurilish tannarxini joriy narxlarda hisoblash Vazirlar Mahkamasining 2003yil 11 iyundagi 261-son qarori Markazlashgan kapital quyilmalar hisobiga ro’yobga chiqarilayotgan investisiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o’tish to’g’risida, ShNK 4.01.16-09 “Qurilish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” shaharsozlik me’yorlari va qoidalari me’yoriy hujjatiga muvofiq xarajatlarni prognozli joriy narxlarda hisoblash asosida resurs usulidan foydalangan holda amalga oshirilgan va

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan TN.QURILISH 5.0 dasturiy majmuasida ishlab chiqilgan.

Ish haqi xarajatlari resurs smetasining bir qismi sifatida belgilangan qurilish ishchilarining mehnat xarajatlarini va ishchilarning o’rtacha soatlik ish haqini ko’paytirish yo’li bilan aniqlanadi. Ishchilarning o’rtacha soatlik ish haqi buyurtmachining ma’lumotlariga ko’ra qabul qilingan.

Mashina va mexanizmlarning ekspluatatsiya xarajatlari qiymati resurs varaqlari va buyurtmachining dastlabki ma’lumotlariga muvofiq tovar belgilariga bo’lgan me’yoriy ehtiyoj asosida olingan.

Qurilish materiallari, asbob-uskunalar, moddiy-texnika resurslari narxlari buyurtmachi ma’lumotlari va joriy narxlar katalogiga muvofiq (2026-yil 1-chorak uchun) olingan.

Pudratchining boshqa xarajatlari Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri xarajatlarning 18% doirasida qabul qilingan.

6.2. Navoi viloyati Navbahor tumani “Beshrabot” MFY hududida 5 qavatli turar joy xonadonlarini qurish loyiha topshirig‘iga muvofiq ishlab chiqilgan.

6.3. Shu bilan birga, loyihaning texnologik va konstruktiv yechimlari bo‘yicha buyurtmachining izohlarisiz loyiha ekspertiza uchun taqdim etilgani qayd etilgan.

Shartnoma bo'yicha import va texnologik asbob-uskunalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlari va bu bilan bog'liq xarajatlar ekspertiza tomonidan hisobga olinmagan.

6.4. Ishchi loyihani ko‘rib chiqish jarayonida aniqlangan ekspertiza mulohazalari va takliflari shafof qurilish tizimi orqali 2026-yilda berilgan 136662/588486-sonli mahalliy ekspert xulosasida bayon etilgan, buyurtmachi va loyihalash tashkiloti manziliga yuborilgan.

Loyixa tashkilotining 2026-yildagi javob xatida, lokal xulosalardagi talab va takliflarga javoban loyiha-smeta hujjatlariga tuzatishlar kiritilganligi malum qilingan.

Bundan tashqari: buyurtmachining boshqa xarajatlari QQS bilan – 336 425,155 ming so'm.

6.5. Belgilangan tavsiya etilgan xarajatni qabul qilish to'g'risidagi qaror buyurtmachi va pudratchi tomonidan ishlarning haqiqiy hajmi va mintaqaviy bozordagi narxlardan kelib chiqqan holda birgalikda qabul qilinadi.

6.6. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so’ng nazorat o’lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.7. Buyurtmachiga tavsiya etiladi.

- ShNK 4.01.16-09 6-bobidagi “Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchilarning narxlarini o‘z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlaridan olinishi;

- Buyurtmachiga loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

7. Xulosalar.

7.1. Navoiy viloyati Navbahor tumani “Beshrabot” MFY hududida 5 qavatli turar joy xonadonlarini qurish ishchi loyihasini ekspertiza natijalarini inobatga olgan holda, ushbu

xulosaning 5.2-bandiga muvofiq ijobiy kelishuvga ega bo’lgandan so’ng keyingi ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

Qurilishning tavsiya etilgan qiymati ish shartnomasini tuzish uchun asos bo'lmaydi.

7.2. Tavsiya etilgan xarajat buyurtmachi va pudratchi o'rtasida SHNK 4.01.16-09 "Shartnomadagi joriy narxlarda qurilish narxini aniqlash qoidalari" ga muvofiq keyingi kelishuv va tasdiqlash uchun ko'rsatma hisoblanadi.

7.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qaroriga 1-ilova, III bob, 29-bandiga asosan “Davlat ekspertizasiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachi (loyihalash jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi nuqtai nazaridan) va ishlab chiquvchi (qabul qilingan loyihaviy echim va qarorlari) zimmasiga yuklanadi.

7.4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-son qarori 1-ilovasi 5-bob 36-bandi bo’yicha mazkur ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2-yil.

Ishtirokchi ekspertlar: Saidov Kamil Xamdamovich, Shayumov Mansur Mustafayevich, Bikuzin Timur Shavkatovich, Yuldashov Xudoyor Bozorboyovich, Orziyev Azizjon Xasanovich, Ishimov Farrux Nabijon O‘g‘li

Bosh ekspert

MIRZABEKOV MEHRIDDIN ZAYNIDDIN O‘G‘LI